

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Jild 3, Son 11

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 11 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳақимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

## **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Kucharov Jamshid Qulnazarovich*

ROSSIYANING PAXTA YETISHTIRISH BORASIDAGI SINOV-TAJRIBALARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR (TURKISTON TO'PLAMI MATERIALLARI ASOSIDA) ..... 11-14

*Taʼbaev Amirbek Ashirbaevich*

Б.Х.КАРМИШЕВА АСАРЛАРИДА “ИЛК ҚАБИЛАЛАР”ГА ОИД ЭТНОНИМЛАР МАСАЛАСИ ..... 15-23

*Ҳамаев Нодирбек Мўминович*

ТУРКИСТОНДА ИСТИҚЛОЛ УЧУН КУРАШНИНГ РИВОЖЛАНИБ БОРИШИ ВА УНИНГ МАТБУОТДА ЁРИТИЛИШИ (1920-1924) ..... 24-32

*Tilavova Shahnoza Salohitdinovna*

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA JADIDLARNING FAOLIYATI ..... 33-36

*Қозоқов Тоҳиржон Қодиралиевич*

НАМАНГАНДА ҚОЗИЛАР ВА СУДЛАР ТАРИХИ ..... 37-42

*Артикбаев Ойбек Салимахамаатович*

ЎЗБЕК-ҚОЗОҚ ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРИНИНГ ОИЛАВИЙ УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАРДА НАМОЁН БЎЛИШИ (XX АСР ТОШКЕНТ ВОҲАСИ МИСОЛИДА) ..... 43-56

*Atavullayeva Shaxlo Musoyevna*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI KONSTITUTSIYASINING YARATILISH TARIXI ... 57-62

### 8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Қўчқаров Файзулло Абдужабборович*

ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАР – АГРАР СОҲАНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ..... 63-70

*Shao Junling*

ANALYSIS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S REGIONAL ECONOMY .. 71-76

*Ashirov Nurmurod Qulmatovich*

RAQAMLI TECHNOLOGIYALARDAN KENG KO'LAMDA FOYDALANISHDA BANK TIZIMINI IMKONIYATLARINI OSHIRISH YO'LLARI ..... 77-82

*Togayev Salim Sobirovich*

BANK XIZMATLARIGA BO'LGAN ISHONCHNI OSHIRISH YOHUD MIJOZNI JALB QILISHNING SAMARALI YO'LLARI ..... 83-89

*Саттаров Ғанижон Озодович*

МИНТАҚА РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИДАН ФОЙДАЛАНИШ ОМИЛЛАРИ ..... 90-96

<i>Yakubova Samira</i> LEVERAGING PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS: STRATEGIES FOR OPTIMAL INVESTMENT FINANCING .....	97-102
<i>Abdualiyev Hamidulla Toxirjonovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASASINING INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH TIZIMIDAGI LOYIHALARNI BOSHQARISH OFISI .....	103-109
<i>Egamberdiyeva Salima Rayimovna</i> XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH .....	110-118
<i>Xolmamatov Diyor Haqberdievich</i> SANOAT KORXONALARINING BOZORDAGI MAVQEINI BAHOLASHDA SPACE TAHLIL USULIDAN FOYDALANISH .....	119-127
<i>Gafurova Dilshoda</i> INNOVATIVE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: ASSESSING STRATEGIES AND IMPACTS .....	128-132
<i>Xomidov Abdugaffor Axmadjonovich</i> TA'LIM SOHASIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH .....	133-139
<i>Raxmonov Mirvoxid Rajabovich</i> NAVOIY VILOYATI ASOSIY KAPITALIGA INVESTITSIYALAR TUZILISHI VA DINAMIKASI TAHLILI .....	140-149
<i>Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li</i> DON VA DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING XIZMATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA SNW TAHLIL USULINING O'RNI VA UNI QO'LLASH XUSUSIYATLARI .....	150-159
<i>Aziza Umarova</i> AKSIYALARNI BIRLAMCHI OMMAVIY JOYLASHTIRISH (IPO) AMALIYOTI ORQALI MOLIYAVIY RESURSLARNI SHAKLLANTIRISHNING HORIJ TAJRIBASI .....	160-167
<i>Абдуллаев Бунёд Ўткирович</i> СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	168-178
<i>Matjonov Bekjon Ravshonbekovich</i> SOME CHARACTERISTICS OF ENSURING FOOD SAFETY IN UZBEKISTAN .....	179-185
<i>Алиматова Наргис Абдухалиловна</i> КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ-РАҚОБАТБАРДОШЛИК ОМИЛИ.....	186-197

### 09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Kobulniyazova Gulchexra Toshpulatovna</i> F. NITSSHE "HAYOT FALSAFASI" KONSEPSIYASI IJTIMOY RIVOJLANISHNING IRRATSIONAL ASOSI .....	198-204
<i>Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich</i> INSON MOHIYATI, UNING BIOLOGIK VA IJTIMOY TABIATI .....	205-211
<i>Турсунов Лочин Эркинович, Хакимова Дилноза Юсуфхоновна</i> РАЗВИТИЕ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ У ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ .....	212-218
<i>Urinboyev Dilmurod Tura o'g'li</i> HUQUQIY FAOLLIK VA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI.....	219-225
<i>Яздонов Зикирилло Шукуруллоевич</i> АЛ-ҲАКИМ АТ-ТЕРМИЗИЙНИНГ СЎФИЁНА ҚАРАШЛАРИ ВА МАЛОМАТИЙЛИККА МУНОСАБАТИ .....	226-231
<i>Nabiyev Maxsud Abdumannonovich</i> IQTISODIY MADANIYATNING MAZMUNIVAMOHIYATI .....	232-238
<i>Haydaraliyev Shuhratjon</i> MARKAZIY OSIYODA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING MILLIY VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI .....	239-243
<i>Хамраев Сардорбек Шарафутдинович</i> ЭКОТУРИЗМ ЖАРАЁНЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ТАРИХИЙ ЭВОЛЮЦИЯСИ..	244-250
<i>Xashimov Sheraxon Jo'raxonovich</i> O'ZBEKISTONNING XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISHDA MILLIY TURIZMDAGI EKOLOGIK TURIZMNING TUTGAN O'RNI .....	251-260
<i>Хатамова Рашида Закиржановна</i> ПАТРИОТИЗМ КАК ЭЛЕМЕНТ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ .....	261-266
<i>Патиев Холдор Икромович</i> ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ .....	267-275
<i>Ismoilova Hayitxon Maxammadjonovna</i> FARG'ONA VODIYSIDA OILA URF-ODATLARI VA QADRIYATLARINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOY JARAYONLARDA NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI .....	276-280
<i>Raximova Rayxon Abdurasulovna</i> GLOBALLASHUV VA OILA AXLOQIY MADANIYATINING O'ZARO ALOQADORLIGI .....	281-287
<i>Raxmankulov Farhod Raximkulovich</i> MULKDORLAR QATLAMIDA IJTIMOY MAS'ULIYAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI .....	288-292
<i>Shirinov Anvar Qanoatovich</i> MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTINING DOLZARB MASALALARI .....	293-299

*Xandamova Marifat Akramovna*  
 “OSOR AL-BOQIYA” – ABU RAYHON BERUNIY ILMIIY IJODINING DURDONASI.....300-304

*Teshaboev Muhiddin Marifovich*  
 IJTIMOIIY DAVLATDA IJTIMOIIY ADOLATNI TA’MINLASH VA IJTIMOIIY INSTITUTLARNING  
 MAQSADI .....305-311

*Karimov Rahmat Rahmonovich, Bekbayev Rauf Rustamovich*  
 MADANIY ANTROPOLOGIYA FANINING PREDMETI VA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR  
 TIZIMIDAGI O’RNI .....312-320

*Talapov Baxriddin Alijanovich*  
 DEMOKRATIYA VA SHARQONA BOSHQARISHNING ETNODIFFERENSIAL  
 XUSUSIYATLARI .....321-326

### **10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Ayuzmuratova Nurjamal Dastembayeva*  
 КАРАКАЛПАКСКИЕ ЖЕНСКИЕ ЛИЧНЫЕ ИМЕНА.....327-332

*Olga Filippova*  
 ADDING REDUNDANCY FUNCTIONS TO CLUSTERED IMPLEMENTATION .....333-345

*Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi*  
 INGLIZ TILIDAGI RIELTORLIK FAOLIYATIGA OID TERMINLARNING O’ZBEK TILI O’ZLASHISH  
 MASALALARI .....346-351

*Narzieva Gulnoza Akbarovna*  
 LEKSIK BIRLIKLARDA MILLIY – MADANIY KOD IFODASI .....352-357

*Qodirova Mukaddas Tog’ayevna, Ibragimova So’g’diyona Ikrom qizi*  
 INGLIZ-O’ZBEK TILLARIDA VERBAL VA NOVERBAL MULOQOT TABULARINING  
 QO’LLANILISHI .....358-362

### **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Tўраев Сардор Абдихаким ўғли*  
 ИНТЕРНЕТ ТАРМОҒИДАН ФОЙДАЛАНИБ СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЖИНОЯТЛАРНИНГ  
 ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ УМУМИЙ ЧОРАЛАРИ .....363-371

*Атаев Шокир Куранбаевич*  
 ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ  
 АСОСЛАРИНИ ЯНАДА ЛИБЕРАЛЛАШТИРИШ .....372-377

*Юсупов Илхомжон Ибодиллаевич*  
 ҲУҚУҚИЙ АНИҚЛИК ПРИНЦИПИНING АЙРИМ НАЗАРИЙ - ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ  
 ХУСУСИДА .....378-385

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Adizova Nigora Baxtiyorovna*  
 MUAMMOLI TA’LIM ASOSIDA BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINING DIVERGENT  
 TAFAKKURINI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISH .....386-390



<i>Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna</i> O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURLARI TALABALARINING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN ISPAN TILINI O'QITISHDA VIRTUAL REALLIKDAN FOYDALANISH .....	391-400
<i>Uralova Muxabbat Sanjar qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	401-406
<i>Kenjabaev Jahongir Abdusalimovich</i> METHODOLOGY FOR TEACHING ENGLISH BASED ON INTERNET RESOURCES .....	407-411
<i>Abdusamatov Alisher Sobirovich</i> TA'LIMNI LOYIHALASHTIRISH JARAYONIGA SEMIOTIK YONDASHUV .....	412-417
<i>Ibragimova Ehtiyotxon Ismailovna, Sobirova Nargiza Numonjonovna</i> TA'LIMDA NOVERBAL VOSITALARNING O'RNI .....	418-422
<i>Babayeva Maxfuza Abduvaitovna</i> TA'LIMDA FANLARARO BOG'LANISHNING AHAMIYATI .....	423-429
<i>Nazarova Zarrina Allaberdiyevna</i> MAKTAB O'QITUVCHILARINING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	430-435
<i>Jumayeva Gulnora Tursunpulatovna</i> O'QITUVCHILARINING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SHART- SHAROITLARI .....	436-442
<i>Умаров Азиз Авазович</i> ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА .....	443-447
<i>Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi</i> INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI(STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASI MISOLIDA).....	448-453
<i>Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovna</i> DIVERSIFIKATSIYA TAMOYILI ASOSIDA TALABALARNING KREATIVLIGINI YUZAGA CHIQRISH METODIKASI .....	454-461
<i>Komilov Nodirbek Bokijonovich</i> THE IMPORTANCE OF THE HISTORY OF MEDICINE IN INCREASING THE EXCLUSIVE COMPETENCE OF FOREIGN STUDENTS .....	462-466
<i>Sapieva Nargiza Mamayusufovna</i> IQTIDORLI O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNI IJTIMOIY-PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH .....	467-478
<i>Norqobilova Rayxona Davlatovna</i> XORIJIY FANLARDAN BOLALARNING MAKTABGA TAYYORGARLIGINING DIAGNOSTIKASI .....	479-484

---

<i>Mamatkodirov Maxammadali Mamatisakovich</i> SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR UCHUN RAQAMLI VOSITALAR VA PLATFORMALARNI HAMDA O'QITISH USULLARINI TANLASH .....	485-492
<i>Irgasheva Umida Raimjanovna</i> TALABALAR KASBIY NUTQ KOMPETENTSIYASINI STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	493-498
<i>Turayeva Lolaxon Yuldashevna</i> ERKIN MEXANIK TEBRANISHLARNI MAPLE DASTURIY VOSITASI YORDAMIDA O'RGANISH VA NAMOYISH ETISH .....	499-505
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna</i> TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	506-510
<i>Kenjabayeva Dilafruz Abdisalimovna</i> OLIV O'QUV YURTI SHAROITIDA ZAMONAVIY O'QITUVCHINI TAYYORLASHNING DEONTOLOGIK KOMPONENTI .....	511-518
<i>Xasanova Gulnoza Raxatjanovna</i> KREDIT-MODULLI TA'LIM TIZIMI JARAYONIDA OLIV TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI .....	519-525

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

**Egamberdiyeva Salima Rayimovna**  
i.f.n., dotsent, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

### **XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada moliyaviy hisobotning konseptual asoslarining yangi tahririga asosan qishloq xo'jaligi korxonalarini buxgalteriya balansida aktivlarning tarkibi bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Buxgalteriya balansida asosiy vositalarni turlari (klasslari) bo'yicha detallashtirish, investitsiyaviy mulklar, kabi moddalarni kiritish taklif etilgan. Maqolada qishloq xo'jaligida aktivlar hisobining tashkiliy-uslubiy jihatlari yoritilgan. Qishloq xo'jaligida aktivlar hisobini tashkil etish bo'yicha xulosalar shakllantirilgan hamda takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi faoliyati, qishloq xo'jaligi hosili, tirik hayvon, o'simlik, biologik aktiv, o'stirishdagi hayvonlar, dehqonchilik hosili, chorvachilik mahsuloti 16-son BHXS (IAS) «Asosiy vositalar», 17-son BHXS «Ijara» (IAS) «Ijara», 38-son BHXS (IAS) «Nomoddiy aktivlar», 40-son BHXS (IAS) «Investitsion mulk», 41-son BHXS «Qishloq xo'jaligi».

**Egamberdieva Salima Rayimovna**  
Associate Professor, Karshi Engineering and Economics Institute

### **IMPROVING ACCOUNTING OF AGRICULTURAL ASSETS ACCORDING TO INTERNATIONAL STANDARDS**

**Abstract.** In this article, based on the new version of the conceptual basis of financial reporting, proposals on the composition of assets in the balance sheet of agricultural enterprises have been developed. In the accounting balance sheet, it is proposed to detail the fixed assets by types (classes), to include such items as investment properties. The article describes the organizational and methodological aspects of asset accounting in agriculture. Conclusions on the organization of the account of assets in agriculture were formed and proposals were developed.

**Key words:** agriculture, agricultural activity, agricultural produce, live animal, plant, biological assets, farm animals, agricultural crops, livestock products IAS No. 16 "Fixed assets", IAS No. 17 "Lease" (IAS) "Lease", IAS No. 38 "Intangible assets", No. 40 BHXS (IAS) "Investment property", No. 41 BHXS "Agriculture".

**Эгамбердиева Салима Раимовна**  
к.э.н., доцент, Каршинский инженерно-экономический институт

### **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ АКТИВОВ ПО МЕЖДУНАРОДНЫМ СТАНДАРТАМ**

**Аннотация.** В данной статье на основе новой версии концептуальных основ финансовой отчетности разработаны предложения по составу активов на балансе сельскохозяйственных предприятий. В бухгалтерском балансе предлагается детализировать основные средства по видам (классам), включать такие статьи, как инвестиционная недвижимость. В статье рассмотрены

организационно-методические аспекты учета основных средств в сельском хозяйстве. Сформированы выводы по организации учета основных средств в сельском хозяйстве и разработаны предложения.

**Ключевые слова:** сельское хозяйство, сельскохозяйственная деятельность, сельскохозяйственная продукция, живое животное, растение. биологические активы, сельскохозяйственные животные, сельскохозяйственные культуры, продукция животноводства МСФО № 16 «Основные средства», МСБУ № 17 «Аренда» (МСБУ) «Аренда», МСБУ № 38 «Нематериальные активы», , БХС № 40 (МСФО ) «Инвестиционная недвижимость», БХС № 41 «Сельское хозяйство».

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I11Y2023N15>

**Kirish.** Buxgalteriya hisobi oldida turgan muhim vazifalardan biri bu korxonalarda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonlari to'g'risida real va batafsil axborotlarni shakllantirish, ularni foydalanuvchilar, avvalambor, investorlarga o'z vaqtida yetkazib berishdir.

Aholini oziq-ovqat xavfsizligi va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Bu o'z vaqtida oziq ovqatni yetishtiruvchi subyektlar, xususan, biologik aktivlardan olinadigan hosilni o'z vaqtida hisob –kitobini xalqaro standartlar asosida yuritish va muhim hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, hozirgi sharoit qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan korxonalar faoliyatini rivojlantirish, ularda hisob va hisobot ishlarini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Amalda bo'lgan buxgalteriya hisobiga oid milliy standartlarda qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan korxonalar faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqib hisobni yuritish tartiblari aniq belgilanmagan. Bugungi kunda qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan korxonalarlarda axborot foydalanuvchilarga tashkilotning mol-mulki, uning holati va foydalanish darajalari to'g'risidagi axborotlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu muhim vazifaning bajarilishi buxgalteriya hisobini yuritishni tartibga solib turuvchi dastaklar, chunonchi, schyotlar rejasi, korxonalarda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonlari ko'lam va yo'nalishlari, ularga kiritilayotgan investitsiyalar to'g'risida atroflicha va tizimli axborotlarni shakllantirishga mo'ljallanganschyotlar mavjudligiga bevosita bog'liq.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan korxonalarlarda aktivlarni tasniflash, ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Aktivlar hisobini turli iqtisodiy va ijtimoiy maktablar hamda ilmiy yo'nalishlar, shu jumladan, hisob va audit sohasi vakillari tomonidan ham tadqiq etilgan. Xususan, aktilar hisobi CH.E. Shprug, YE.S. Xendriksen, Joel G. Siegel, David Minars, Sokolov Y.V, Shturmina O. S. , Shturmina O. S., L. Pacholi, Dutman Simin Stivin, Jak Savari kabi olimlar tadqiqotining predmeti bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevralda PQ-4611 "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida" Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq MHXSlari talablariga to'liq javob beradigan O'zbekiston buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS)ni qayta tahrirda ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan [1].

Buning uchun esa MHXSlari va BHMSlari o'rtasidagi tafovutlarga barham berish kerak. Ularni imkon qadar muvofiqlashtirish kerak. MHXSlarda mavjud bo'lgan, lekin BHMSlar tarkibida bo'lmagan standartlarni ham ishlab chiqish kerak. Standartlarga interpretasiyalar

ishlab chiqishni yo'lga qo'yish kerak. Buxgalteriya hisobi bo'yicha boshqa qonun osti meyoriy-huquqiy hujjatlarni, jumladan Nizomlar va qoidalarni ham standartlarga aylantirish kerak. O'zbekistonda mukammal buxgalteriya hisobining milliy standartlari tizimi shakllanishi lozim.

Xalqaro standartlarga o'tishda dastavval xalqaro konseptual asoslar bo'yicha umumiy qoidalarni muvofiqlashtirish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda xalqaro konseptual asoslarning yangi tahririda aktivlarga bergan ta'riflar asosida milliy konseptual asoslarimizni takomillashtirish lozim, deb hisoblaymiz. Xalqaro konseptual asoslari va milliy konseptual asoslaridagi qoidalarni solishtirish natijalarini quyidagi jadvalda rasmiylashtiramiz (1-jadval)

**Aktivlar** – bu tashkilotning o'tgan xodisalari natijasida yuza kelgan va nazorat qilinadigan hamda undan foydalanish korxonaga kelgusida iqtisodiy nafni keltiradigan iqtisodiy resurslardir. Iqtisodiy resurs deganda, iqtisodiy nafni yaratish potensialiga ega bo'lgan mol-mulkka bo'lgan huquqning baholangan summasiga aytiladi.

Xalqaro standartlarga [2] muvofiq, aktivlarni buxgalteriya balansida tan olinishi uchun (a) u bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy nafning olinishi yoki yo'qotilishi ehtimoli amal qiladi; [2] obekt qiymat yoki bahoga ega bo'ladi, qaysiki u ishonchli o'lchanilishi mumkin. Xalqaro standartlarda aktivlarni qichqa muddatli deb tan olishning mezonlari ham berilgan. Qisqa muddatli aktivlar mezonlariga javob bermaydigan aktivlar uzoq muddatli aktivlar deb tan olinadi. Sohaga doir manbalarda mol-mulk tushunchasiga ham aniqlik kiritilgan. Moddiy ko'rinishdagi mol-mulkiga quyidagi aktivlar kirishi qayd qilingan [3]: asosiy vositalar; investisiyaviy mulk; sotish uchun mo'ljallangan deb tasniflangan oborotdan tashqari aktivlar; zaxiralar. B.Boronov[4] buxgalteriya balansida moliyaviy aktivlarni, jumladan investisiyalarni hissaliqatnashish metodi asosida baholab aks ettirish hamda debitorlik qarzlarinisavdo va nosavdo debitorlik qarzlariga ajratishni taklif etadi. Lekin, ushbu ishda investisiyalar va debitorlik qarzlarining tarkibi xalqaro standartlarga muvofiq to'liq shakllantirilmagan. I.K. Ochilov, SH.SH.Raxmatovalar[5] NNTlarda hisob siyosatida keltiriladigan asosiy unsurlarda "aktivlar va majburiyatlarni baholash usullari"ga ahamiyat qaratishgan. S.Robert va M.Riket[6] tomonidan xalqaro jurnalda chop ettirilgan maqolasida GAAP va IFRS standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni taqdim etish masalalari o'rganilgan. S.N.Tashnazarov[7] tomonidan mulk, bino, mashina va asbob- uskunalarni buxgalteriya balansida aks ettirishning tartib qoidalarini tadqiq etgan. Ushbu mualliflarning ishlarida aktivlarni yangi tarkibida buxgalteriya balansida aks ettirish tartiblari yetarli darajada tadqiq qilinmagan.

**Tahlil va natijalar.** Xalqaro standartlar muvofiq buxgalteriya balansini takomillashtirishda dastavval aktivlarning umum tan olingan tasnifini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1-son BHXS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" talablariga muvofiq ravishda korxonalarda, jumladan qishloq xo'jalik korxonalarida aktivlarning quyidagi tasnifidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.1-2 rasmlar.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

### UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR

#### Amaldagi buxgalteriya hisobidagi

- Asosiy vositalar (Yer, bino, mashina va asbob-uskunalar);
- Moliyalanadigan lizing shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vosita
  - Nomoddiy aktivlar;
- Uzoq muddatli investitsiyalar;
  - O'rnatish jixozlari
  - kapital qo'yilmalar;
- Uzoq muddatli debitor qarzlari.

#### Tavsiya etilayotgan variant

- Asosiy vositalar (Yer, bino, mashina va asbob-uskunalar);
- Nomoddiy aktivlar;
- Biologik aktivlar (uzoq muddatli);
- Uzoq muddatli investitsiyalar (Hissali qatnashish metodi asosida);
- Uzoq muddatli investitsiyalar (Hissali qatnashish metodi asosida);
- Investitsiyaviy mulk;

**1-rasm. Korxonaga uzoq muddatli aktivlarning xalqaro standartlarga muvofiq tasnifi**

### QISQA MUDDATLI AKTIVLAR

#### Amaldagi buxgalteriya hisobi bo'yicha

- Materiallar;
- Yetkazib berish va boquvdagi xayvonlar;
- Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari;
- O'zi ishlab chiqargan yarim tayyor maxsulotlar
- Yordamchi chiqarish xarajatlari;
- Umumishlab chiqarish xarajatlari;
- Ishlab chiqarishdagi yaroqsizlik;
- Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar;
- Tayyor maxsulotlar;
- Tovarlar;
- Kelgusi davr xarajatlari va muddati kechiktirilgan xarajatlar;
- Qisqa muddatli debitor qarzlari;
- Pul mablag'lari;
- Pul ekvivalentlari
- Qisqa muddatli investitsiya.

#### Tavsiya etilayotgan variant (moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga asosan)

- Tovar-moddiy zaxiralar;
- Qisqa muddatli investitsiyalar;
- Biologik aktivlar (qisqa muddatli);
- Savdo va boshqa debitorlik qarzlari;
- Pul mablag'lari va pul ekvivalentlari;
- Boshqa moliyaviy aktivlar;
- Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar.

**2-расм. Корхона қисқа мuddatli активларнинг халқаро стандартларга муvофиқ таснифи<sup>1</sup>**

Ushbu tasnif asosida amaldagi buxgalteriya balansining shaklida ma'lum bir o'zgartirishlarni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu o'zgartirishlarning bir qancha zaruriyati mavjud.

Birinchidan, qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy tashqi axborot foydalanuvchilarga ushbu tashkilotning a'zolari, xomiylik va boshqa moliyaviy yordamlarni amalga oshirgan shaxslar, banklar, auditorlik tashkilotlari, davlat soliq organlari va boshqa axborot foydalanuvchilarni kiritish mumkin. Ushbu axborot foydalanuvchilar uchun qarorlar qabul qilishlari uchun qishloq xo'jalik korxonalarining mol-mulk to'g'risida nafaqat umumiy ma'lumotlar, balki ularning tarkibiy qismlari bo'yicha ham ma'lumotlar kerak bo'ladi. Qishloq xo'jalik korxonalarilarning asosiy vositalariga tarkibiga kiruvchi bino va inshootlar, asbob-uskunalar, transport vositalari, kompyuter texnikalari holati to'g'risidagi axborotlar ham foydali hisoblanadi. Bu axborotlar ularning moliyaviy holatini kengroq tavsiflaydi.

Ikkinchidan, 1-son BHXS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" standartining 78-bandida asosiy vositalar 16-son BHXS "Asosiy vositalar" standartiga muvofiq turlari (klasslari) bo'yicha detallashtirilishi lozimligi ko'rsatilgan. Bu xalqaro standartning talabi. Bugun mamlakatimizda xalqaro standartlarga o'tish joriy qilinayotgan ekan, demak biz barcha sohada, xususan, qishloq xo'jaligida ham buxgalteriya hisobi tarkibini ham takomillashtirishimiz lozim.

Uchinchidan, asosiy vositalarning 16-son BHXS "Asosiy vositalar" standartida keltirilgan turlari (klasslari) bo'yicha axborotlar albatta to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda (buxgalteriya balansida) yoki hisobotlarga beriladigan ochiqdashlarda aks ettirilish shart ekanligi qayd qilingan.

To'rtinchidan, amaldagi buxgalteriya balansida ayrim moddalar kiritilmagan. Masalan, investisiyaviy mulklar, uzoq muddatli soliq aktivlari va boshqalar. Sotishga mo'ljallangan deb taniflangan uzoq muddatli aktivlar uzoq muddatli aktivlar tarkibida aks ettirilmaligi lozim, deb o'ylaymiz. Xususan sotish uchun mo'ljallangan katta yoshdagi hayvonlar ham uzoq muddatli aktivlar tarkibida aks ettirilmaligi lozim.

Ushbu jihatlarni hisobga olgan holda xalqaro standartlar talablariga javob beradigan buxgalteriya balansida uzoq muddatli aktivlarni aks ettirish tartibini quyidagi jadvalda keltiramiz.

Amaldagi 21-son BHMSda bugungi kunda qishloq xo'jalik sohasida tez rivojlanayotgan intensiv bog'lar, chunonchi, olmazorlar, yong'oqzorlar, uzumzorlar va boshqa turdagi mevazorlar hamda ularga kiritilayotgan investisiyalar hisobi uchun maxsus schyotlar mavjud emas. Xalqaro miqyosda biologik aktivlarning bir turi sifatida tan olingan ushbu ko'p yillik o'simliklarni respublikamizda ko'paytirishning davlat tomonidan ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi, dehqonchilikning ushbu turlarini jadal rivojlantirishning muhim ahamiyatga molikligi, tabiiy ravishda, mazkur sohalarni modernizatsiyalash jarayonlari hamda ularga kiritilayotgan investisiyalar hisobi uchun maxsus schyotlar ochish hamda yuritishni taqozo etadi.

**1-jadval****Xalqaro standartlar asosida korxonalarda ayrim aktivlar hisobini yuritish uchun tavsiya etilayotgan schyotlar tizimlari<sup>2</sup>**

<sup>1</sup> Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga asosan xalqaro standartlar asosida muallif ishlanmasi

<sup>2</sup> Manba: Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

<b>Aktivning turi</b>	<b>Kodlari</b>	<b>Amaldagi buxgalteriya schyotlar rejasining shaklida Aktivlarni tarkibi</b>	<b>Aktivning turi</b>	<b>Kodlari</b>	<b>Tadqiqotlar asosida taklifqilingan shaklida Aktivlarni tarkibi</b>
Asosiy vositalar	0110	Yer	Asosiy vositalar	0110	Yer
	0111	Yerni obodonlashtirish		0111	Yerni obodonlashtirish
	0112	Moliyalanadigan lizing shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni o'zlashtirish		0112	Moliyalanadigan lizing shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni o'zlashtirish
	0120	Binolar, inshootlar va uzatkich moslamalar		0120	Binolar, inshootlar va uzatkich moslamalar
	0130	Mashina va uskunalar		0130	Mashina va uskunalar
	0140	Mebel va ofis jihozlari		0140	Mebel va ofis jihozlari
	0150	Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi		0150	Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi
	0160	Transport vositalari		0160	Transport vositalari
	0170	Ish hayvonlari		0190	Boshqa asosiy vositalar
	0171	Mahsuldor hayvonlar		0199	Konservatsiya qilingan asosiy vositalar
	0180	Ko'p yillik ekinlar		-	-
	0190	Boshqa asosiy vositalar		-	-
	0199	Konservatsiya qilingan asosiy vositalar		-	-
			Biologik aktivlar	0170	Ish hayvonlari
				0171	Mahsuldor hayvonlar
				0180	Ko'p yillik ekinlar
KAPITAL QO' YILMALAR	0810	Tugallanmagan qurilish	Kapital investisiyalarni hisobga oluvchi schyotlar	0800	Kapital investisiyalar
	0820	Asosiy vositalarni sotib olish		0810	Kapital qurilish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish va ularga kiritilgan kapital investisiyalar
	0830	Nomoddiy aktivlarni sotib olish		0811	Yangi obyektlar qurish va unga kiritilgan kapitalinvestisiyalar
	0840	Asosiy podani shakllantirish		0812	Mavjud obyektlarni kengaytirish va unga kiritilgankapital investisiyalar
	0850	Yerni obodonlashtirishga kapital qo'yilmalar		0813	Mavjud obyektlarni rekonstruksiya qilish va ungakiritilgan capital investisiyalar
	0860	Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarga kapital qo'yilmalar		0820	Asosiy vositalarni xarid qilish va unga kiritilgankapital investisiyalar
	0890	Boshqa kapital qo'yilmalar		0821	Yangi texnika va texnologik liniyalarni xarid qilish hamda unga kiritilgan kapital investisiyalar
				0823	Ko'chmas mulkni xarid qilish va unga kiritilgan kapitalinvestisiyalar
				0824	Boshqa asosiy vositalarni xarid qilish va unga kiritilgankapital investisiyalar
				0830	Nomoddiy aktivlarni zamonaviylashtirish va unga kiritilgan kapital investisiyalarni hisobga oluvchi schyotlar



			0831	Ilmiy tadqiqot ishlari (ishlanmalari), tajriba konstruktorlik ishlanmalari va ularga kiritilgan kapital investisiyalar
			0832	Faoliyatni litsenziyalash va unga kiritilgan kapital investisiyalar
			0840	Biologik aktivlarni zamonaviylashtirish va unga kiritilgan kapital investisiyalar
			0841	Ishchi xayvonlarni parvarishlashga kapital investisiyalar
			0842	Mahsuldor hayvonlarni parvarishlashga kapital investisiyalar
			0843	Ishchi xayvonlarni sotib olishga kapital investisiyalar
			0844	Mahsuldor xayvonlarni sotib olishga kapital investisiyalar
			0850	Yerni obodonlashtirish va unga kiritilgan kapital investisiyalar
			0860	Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha asosiy vositalarni xarid qilish va ularga kiritilgan kapital investisiyalar
			0890	Boshqa kapital investisiyalar

**Xulosa va takliflar.** Amaldagi buxgalteriya balansining joriy aktivlar qismini ham ilg'or xorijiy tajribalar hamda xalqaro standartlar asosida takomillashtirish taqozo etmoqda

1- son BHXS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" da 54-bandida "Savdo va boshqa debitorlik qarzlari" ni aks ettirish talab etilgan. Ushbu standartning 78-bandida esa debitorlik qarzlarni moliyaviy hisobotda aks ettirish bilan bog'liq yana bir qoida aks ettirilgan. Unga muvofiq, "debitorlik qarzlari xaridor va buyurtmachilarning qarzlari, bog'liq tomonlarning qarzlari, oldindan to'lovlarning summasi va boshqa summalarga ajratilgan holda detallashtirilishi" lozimligi qayd etilgan. Xalqaro standartlarga muvofiq savdo va boshqa debitorlik qarzlari moliyaviy aktivlar tarkibiga kiritilgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, buxgalteriya balansida debitorlik qarzlarni quyidagi tasnifda aks ettirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda jahon bozorida tabiiy-toza oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab kundan-kunga ko'payib, bu dunyo mamlakatlari oldiga mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ilmiy asoslangan innovasion texnologiyalarni qo'llagan holda tobora o'sib borayotgan ehtiyojni qondirish masalasini qo'ymoqda. Shu sababli ham jahoniqtisodiyotida cheklangan resurslar taqchilligi muammosi biologik aktivlardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Xalqaro hisob va hisobot amaliyotida "biologik aktivlar" moliyaviy hisob va hisobotning muhim obekti sifatida tan olinadi.

Biroq, hozirgi paytda hisob va hisobot tizimida qo'llanilayotgan hisobotlarda qishloq xo'jalik korxonalarining biologik aktivlari to'g'risidagi ma'lumotlari axborot foydalanuvchilarning talablariga to'liq javob beradi deb bo'lmaydi.

Bu esa, o'z navbatida, moliyaviy hisobotlarning ishonchli va ahamiyatli axborot berish borasidagi foydalilik (naflik) darajasini ma'lum darajada pasayishiga sabab bo'ladi. Xo'jalikni operasion faoliyati va boshqaruv tizimi samaradorligini xolis auditorlar tomonidan baholashda ham ko'plab qiyinchiliklarni tug'diradi.

Biologik aktivlar hisobini xalqaro standartlar talablariga moslashtirish, biologik aktivlar hisobiga doir rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan samarali foydalanilishiga erishish bu barcha mamlakatlar uchun hozirgi kunning eng muhim va dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Bizningcha aktivlar hisobini xalqaro standartlar talabiga ko'ra yuritish uchun aktivlar hisobini amalga oshiruvchi ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Quyida mazkur schyotlarni namunaviy variantini tavsiya etildi:

Qishloq xo'jalik korxonalarida aktivlarining xalqaro standartlarga muvofiq tasnifi<sup>2</sup>

Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda hisob va hisobotlarni xalqaro miqyosda muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega. Hozirda barcha mamlakatlarda qulay investision muhitni shakllantirish, iqtisodiyotning jahonstandartlariga mos keladigan milliy standartlarini yaratish maqsadida buxgalteriya hisobining milliy standartlarini xalqaro standartlar talablariga moslashtirish, moliyaviy hisob va hisobotni xalqaro unifikatsiyasi, hisob va hisobotning muhim tarkibiy qismi hisoblangan biologik aktivlar hisobining hozirgi holati, tasnifi, ularni tan olish, baholash va hisobotlarda aks ettirishni takomillashtirish borasidagi ilmiy ilmiy izlanishlar alohida o'ringa ega. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida biologik aktivlar hisobining konseptual asoslari, ularni tan olish va baholash hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ma'lum yutuqlarga erishib kelingan. Biroq, dunyo miqyosida biologik aktivlar hisobiga doir ilg'or tajribalar hamda bu boradagi xalqaro standartlar talablari jahoniqtisodiyotida o'z o'rnini topishga harakat qilayotgan mamlakatlarda to'liq joriy qilinishiga erishilgan emas. Respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi muhim o'rinni egallab, oxirgi yillarda bu sohaga ham xorijiy investisiyalarni keng jalb qilinishiga qaramasdan, ushbu biologik aktivlar hisobi va auditining xalqaro standartlar talablariga mos keladigan nazariy, tashkiliy va metodologik asoslari to'lig'icha yaratilgan deb bo'lmaydi. Jumladan, respublikamizda biologik aktivlar hisobiga doir milliy standartlar yaratilgan emas. Biologik aktivlarning hisobi 5-BHMS va 4-BHMSlar bilan tartibga solinadi.

Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining joriy qilinishi moliyaviy hisobotlardagi axborotlarning ishonchliligi va obektivligini oshirish bilan bir qatorda xorijiy investisiyalarni mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida xo'jalik yurituvchisubektlarda hisob obektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida, to'g'ri va to'liq shakllantirish hamda boshqa korxonalar bilan bo'ladigan hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, korxonalarda kapital investisiyalar hisobini zamon talablari asosida takomillashtirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi.

*Birinchi*dan, avvalambor, 21-sonBHMSda nazarda tutilgan 0800-«Kapitalqo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar» tizimi nomi va maqomini o'zgartirishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bizningcha, ushbu schyotni 0800-«Korxonani zamonaviylashtirish jarayonlari va ularga kiritilgan kapital investisiyalarni hisobga oluvchi schyotlar» deb nomlash to'g'ridir. Mazkur schyotning aynan shunday nomlanishi uning maqsad va maqomini to'g'ri ifoda etadi, deb o'ylaymiz. Chunki aynan shu nomdagi schyotning mavjudligi va uning yuritilishi korxonada yuz berayotgan yangilanishlarni, bir tomondan, muhim jarayon sifatida aks ettirishga, ikkinchi

tomondan esa ularga kiritilgan kapital investisiyalar hisobini yuritishga imkon beradi.

*Ikkinchidan*, fikrimizcha, zamonaviylashtirish jarayonlari va ularga kiritilgan kapital investisiyalarni hisobga oluvchi schyotlar tizimi tarkibiga kiruvchi schyotlar davlatimiz siyosatida belgilangan innovasion jarayonlarning barcha yo'nalishlari, chunonchi, yangi obektlar qurish, mavjud obektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish va obodonlashtirish, zamonaviy asbob-uskunalar, texnikava texnologik liniyalar, biologik aktivlar va boshqa turdagi yangi asosiy vositalarni xarid qilish, shuningdek, mos ravishda ularga kiritilgan kapital investisiyalarni bevosita aks ettirishga mo'ljallangan bo'lishi lozim. Aynan ushbu talabdan kelib chiqib, bizningcha, amaldagi 0800-«Kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar» tizimini tarkibi, maqomi va nomlanishi bo'yicha restrukturizasiya qilish (o'zgartirish) maqsadga muvofiqdir. Korxonani zamonaviylashtirish jarayonlari va ularga kiritiladigan kapital investisiyalar hisobi uchun biz tomonimizdan tavsiya etilayotgan barcha schyotlar maqomiga ko'ra aktiv, doimiy, balans schyotlarhisoblanadi, shuningdek, ularning har biriga aniq maqsad va vazifalar yuklatiladi.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevralda PQ-4611 "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida" Qarori. <https://lex.uz/docs/4746047>
2. Признание активов согласно МСФО. <https://www.klerk.ru/buh/articles/97184/>
3. Признание и классификация активов в соответствии с МСФО <https://finotchet.ru/articles/590/>
4. B.Boronov. Improvement of investment accounting in Uzbekistan. //DOI: 10:5373/JARDCS/1216/S20201133. Volume 12 | Issue 6. 2020 June. Pages: 1069-1079. <https://www.jardcs.org/abstract.php?id=4967>
5. Ochilov I.K., Raxmatova SH.SH. Nodalat notijorat tashkilotlari hisob siyosati. //Xalqaro moliya va hisobot elektron jurnali. 2020 yil aprel.
6. Robert C., Recket M. Information content of IFRS versus GAAP financial statements //Journal of financial reporting and accounting. ISSN 1985-2517. 12 March 2018.
7. S.N. Tashnazarov. Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. Monografiya. - Publisher SIA OmniScriptum Publishing. GlobeEdit Publishing house. 2018. 280 p. ISBN-13:978-613-8-24050-1, 87-107-betlar

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 11 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).